



**Asosiy tarkib**



**Dastlabki ma'lumotlar**

2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 633,4** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **16,6 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **624,4** mlrd so'mni (**2,2** martaga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 009,0** mlrd so'mni (**1,5 %** ga oshgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **376,6** mlrd so'mni (**5,4 %** ga oshgan) tashkil etdi.


**Tarkibiy qism, ulushlarda**



**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Uyushmagan savdo, mlrd so'm**






**UMUMIY MA'LUMOT**

2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 633,4** mlrd so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **116,6** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o‘shish sur‘ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **76,3** % va yirik korxonalar hissasiga **23,7** % to‘g‘ri keldi.





**ENG YUQORI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **43,8** % ulush bilan **1 153,7** mlrd so‘mni tashkil etdi.

**ENG QUIYI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal‘a tumanida **1,6** % ulush bilan **42,2** mlrd so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **2 009,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **1,5 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **76,3 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Gurlan (99,2 %), Yangiariq (99,1 %) va Bog'ot (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 16,6 foizga oshib, yuqori o‘shish sur‘atlari Urganch shahrida – 144,8 %, Gurlan tumanida– 120,5 %, Yangibozor tumanida – 117,4 % ni tashkil qildi.



**Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2 633 396,6	116,6	624 422,7	2,2 m.	2 008 973,8	101,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 153 734,0	144,8	568 857,5	2,6 m.	584 876,5	101,7
Xiva	80 882,4	98,9	6 381,3	102,9	74 501,1	98,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	110 995,5	96,5	1 430,6	115,2	109 564,9	96,2
Gurlan	235 844,3	120,5	1 933,5	73,4	233 910,7	121,1
Qo‘shko‘pir	84 086,4	100,4	4 716,8	76,4	79 369,6	102,3
Urganch	215 182,7	100,4	9 843,5	100,6	205 339,1	100,4
Hazorasp	210 975,6	94,3	12 903,8	93,5	198 071,8	94,3
Tuproqqal‘a	42 170,0	92,9	64,2	65,8	42 105,8	93,0
Xonqa	145 585,1	100,5	9 054,8	138,2	136 530,3	98,7
Xiva	58 290,1	98,8	1 216,5	89,5	57 073,5	99,1
Shovot	146 382,3	92,1	4 177,6	89,1	142 204,6	92,2
Yangiariq	94 178,9	101,2	875,7	37,0	93 303,2	102,8
Yangibozor	55 089,4	117,4	2 966,7	81,8	52 122,7	120,4

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2,2** martaga oshdi va **624,4** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **23,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 009,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **1,5 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **76,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Gurlan (99,2 %) va Yangiariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 23,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (49,3 %), Xiva shahrida (7,9 %) va Xonqa tumanida (6,2 %) kuzatildi.







## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1366,2** ming so'mni (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **14,7** % ga oshgan) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahri (142,9%), Gurlan (118,4 %) va Yangibozor (115,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (7848,5 ming so'm), Gurlan (1548,6 ming so'm) va Hazorasp (1060,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



## XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2022- yil yanvar-mart


	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	<b>1 366,2</b>	<b>114,7</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	7 848,5	142,9
Xiva	847,8	97,1
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	653,7	94,7
Gurlan	1 548,6	118,4
Qo'shko'pir	477,0	99,0
Urganch	1 045,1	98,3
Hazorasp	1 060,2	93,2
Tuproqqal'a	743,7	90,1
Xonqa	758,7	98,7
Xiva	388,9	97,3
Shovot	838,4	90,7
Yangiariq	790,8	99,6
Yangibozor	614,8	115,6

**Asosiy tarkib, foizda**




2022- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **376,6** mlrd soʻmni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **5,4** % ga oʻsdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʻjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **174,4** mlrd soʻmni (oʻzgarish surʼati 102,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **202,2** mlrd soʻmni (oʻzgarish surʼati 107,8 %) tashkil etdi.


**Oʻsish (oʻzgarish) surʼatlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





2022- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 174,4 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 202,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>376,6</b>	<b>105,4</b>	<b>174,4</b>	<b>102,6</b>	<b>202,2</b>	<b>107,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	84,1	124,8	62,6	136,0	21,5	100,7
<b>Xiva</b>	7,7	134,8	7,5	131,0	0,2	-
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog'ot</b>	62,6	116,5	10,5	146,2	52,0	111,9
<b>Gurlan</b>	50,1	142,2	10,9	123,9	39,2	148,3
<b>Qo'shko'pir</b>	23,8	96,7	15,1	91,0	8,7	108,6
<b>Urganch</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Hazorasp</b>	46,8	111,1	25,6	110,4	21,1	111,9
<b>Tuproqqal'a</b>	3,2	29,7	1,8	18,8	1,3	149,8
<b>Xonqa</b>	23,2	67,8	16,4	66,6	6,9	70,8
<b>Xiva</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Shovot</b>	51,8	74,4	11,4	52,3	40,4	84,4
<b>Yangiariq</b>	11,6	128,0	6,2	143,0	5,4	114,4
<b>Yangibozor</b>	11,7	2,3 m.	6,4	3,2 m.	5,3	172,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI



3,4  
mlrd so'm

Tuzlamalar



78,3  
mlrd so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



12,7  
mlrd so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

26,9  
mlrd so'm



Non va non  
mahsulotlari



4,2  
mlrd so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

3,9  
mlrd so'm



Tuxum

26,7  
mlrd so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

5,8  
mlrd so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

1,1  
mlrd so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

4,1  
mlrd so'm



Ziravorlar

7,5  
mlrd so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 174,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (78,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.




2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **202,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **185,4** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **15,1** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **1,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,2 %** ni tashkil etib, **31,7 mlrd so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **4,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>31 739,7</b>	<b>104,6</b>	<b>1042,6</b>	<b>27,0</b>	<b>30 697,2</b>	<b>115,9</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	12 812,6	98,1	1042,6	69,6	11 770,0	101,8
Xiva	1 015,4	126,9	-	-	1 015,4	126,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	1 285,8	101,8	-	-	1 285,8	101,8
Gurlan	941,9	110,1	-	-	941,9	110,1
Qo‘shko‘pir	736,7	136,0	-	-	736,7	136,0
Urganch	4 509,8	110,1	-	-	4 509,8	117,1
Hazorasp	2 040,3	115,2	-	-	2 040,3	115,2
Tuproqqal‘a	599,5	125,1	-	-	599,5	125,1
Xonqa	1 231,6	111,4	-	-	1 231,6	111,4
Xiva	1 249,7	158,8	-	-	1 249,7	158,8
Shovot	3 961,1	93,2	-	-	3 961,1	185,5
Yangiariq	538,9	101,0	-	-	538,9	101,0
Yangibozor	816,5	103,0	-	-	816,5	103,0

**Asosiy tarkib, foizda**




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2022- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **679,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **9,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **116,4** mlrd so'mni (**10,1%** ga ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **562,8** mlrd so'mni (**9,0 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**

Ulgurji savdo

679,2 mlrd so'm, 100 %


Yirik korxonalar

116,4 mlrd so'm, 17,1 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

562,8 mlrd so'm, 82,9 %

**Eng yuqori ulushga ega hududlar**






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bog'ot tumani (5 769,1 m.), Xonqa tumani (8,2 m.) va Urganch tumanida (126,1 %) qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Bog'ot tumani (2,1 m.), Xonqa tumani (178,4%) va Xiva shahrida (160,3%) kuzatildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>679 243,9</b>	<b>109,2</b>	<b>116 424,5</b>	<b>110,1</b>	<b>562 819,4</b>	<b>109,0</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	335 964,1	108,5	38 865,6	60,7	297 098,5	121,0
Xiva	38 337,4	160,3	191,1	90,6	38 146,4	160,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	24 094,9	2,1 m.	12 918,6	5769,1 m.	11 176,3	94,7
Gurlan	11 533,2	88,6	0,6	0,1	11 532,5	96,3
Qo'shko'pir	4 616,3	121,3	1,6	41,8	4 614,7	121,4
Urganch	138 652,6	112,6	47 740,6	126,1	90 912,0	106,6
Hazorasp	7 223,9	117,0	92,6	59,9	7 131,3	118,5
Tuproqqal'a	5 268,8	81,7	1,7	23,2	5 267,1	81,8
Xonqa	44 792,1	178,4	16 238,0	8,2 m.	28 554,1	123,4
Xiva	48 196,3	73,4	0,7	13,5	48 195,5	73,4
Shovot	6 732,5	94,1	8,0	111,7	6 724,5	94,1
Yangiariq	4 578,9	41,4	14,0	16,4	4 564,9	41,6
Yangibozor	9 253,0	61,0	351,4	91,2	8 901,6	60,2




## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **562,8** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **9,0** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **82,9** % ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Gurlan, Qo'shko'pir, Tuproqqal'a va Xiva tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (46,4 %) va Urganch tumaniga (65,6 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-16